

УДК 633.11:631.52

“Qattiq bug'doy (*T.durum L.*)ning abiotik omillarga bardoshli boshlang'ich manbalarni tanlash (Surxondaryo viloyati sharoitida)”

Salomova Z. Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

“Agronomiya, seleksiya va urug'chilik” kafedrasida 1 kurs tayanch doktoranti

Kubaeva M. Tayanch doktorant: 2 kurs

U.Sh.Qarshieva Q.x.f.d.(DSs),umidaqarshieva69@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-8458-0832>

ANNOTATSIYA. Ma'lumki, bug'doy unining nonboplik xususiyati asosan kleykovina miqdori va uning sifati bilan baholanadi. Bugungi kunda bug'doyning yangi yaratilayotgan navlari biotik va abiotik omillarga chidamli, mahsuldorligi bilan birgalikda uning don sifat ko'rsatkichlarini ham yuqori bo'lishini talab qilmoqda.

Kalit so'zlar: don sifati, kleykovina, oqsil, shishasimonlik, qayishqoqlik, don qattiqligi.

ABSTRACT. It is known that the non-propensity of wheat flour is mainly assessed by the amount of gluten and its quality. Today, the newly created varieties of wheat are resistant to biotic and abiotic factors, in combination with productivity, it requires that its grain quality indicators also be high..

Keywords: grain quality, gluten, protein, vitreous, creaminess, grain hardness.

Kirish. Qattiq bug'doy dunyo bo'yicha 17 mln gektardan ortiq maydonga ekilib, 38 mln tonna don yetishtirilgan. Qattiq bug'doy donini yetishtirish bo'yicha dunyoning yetakchi davlatlari Kanada, Italiya, Turkiya, AQSh, Qozog'iston, Suriya, Jazoir, Fransiya, Morokko, Gresiya, Ispaniya, Tunis hisoblanadi. Qattiq bug'doydan yuqori sifatli yorma, makaron va bir qancha qandolat mahsulotlar tayyorlanadi. Donida oqsil miqdorining ko'pligi, kleykovina sifatining a'lo darajada ekanligi undan tayyorlanadigan mahsulotlarning sifatli va to'yimli bo'lishini ta'minlaydi. qattiq bug'doyning ertapishar, issiqlikka va qurg'oqchilikka

chidamli, don hosili hamda sifati yuqori bo'lgan yangi navlarini yaratish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Qattiq bug'doydan yuqori sifatli yorma, makaron va bir qancha qandolat mahsulotlar tayyorlanadi. Donida oqsil miqdorining ko'pligi, kleykovina sifatining a'lo darajada ekanligi undan tayyorlanadigan mahsulotlarning sifatli va to'yimli bo'lishini ta'minlaydi.

Tadqiqotning maqsadi: Janubiy mintaqalar sharoitida qattiq bug'doyning qurg'oqchilikka va issiqlikka chidamli, ertapishar, donning sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan boshlang'ich manbalarini tanlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Qattiq bug'doyning qurg'oqchilikka va issiqlikka chidamli, nav namunalari biologik va qimmatli-xo'jalik belgi va xususiyatlarini aniqlash; janubiy mintaqalar sharoitida qattiq bug'doyning morfologik, biologik va qimmatli-xo'jalik belgilari bo'yicha tanlash;

Qattiq bug'doyning nav namunalarni baholash va tanlash asosida tashqi muhitning noqulay omillariga chidamli, qurg'oqchilikka, kasalliklarga chidamli, don hosildorligi va sifati yuqori bo'lgan boshlang'ich manbalarni tanlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida xalqaro ilmiy markazlar ICARDA (International Center for Agricultural Research in the Dry Areas), International Maize and Wheat Improvement Center (CIMMYT, Meksika), Qurg'oqchilik mintaqalarda qishloq xo'jaligi ilmiy-tadqiqotlari xalqaro markazi (ICARDA) dan keltirilgan nav namunalari foydalaniladi. Tadqiqotning predmeti bo'lib qattiq bug'doyning kelib chiqishi turli mintaqalarga mansub bo'lgan nav namunalari o'suv davri, qurg'oqchilikka, issiqlikka chidamliligi, qimmatli xo'jalik belgilari, donning sifati va hosildorlik ko'rsatkichlari hamda duragay tahlillari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda olib borilgan bug‘doy nav namunalarini morfologik va biometrik ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholash «mejdunarodniy klassifikator sev roda *triticum l.*» xalqaro klassifikatorining (I., 1984) bug‘doyning *triticum* avlodi bo‘yicha ishlab chiqilgan uslubda hamda ICARDA xalqaro ilmiy markazida (1996) ishlab chiqilgan peterson va manners shkalasi bo‘yicha o‘tkaziladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi ilk bor qattiq bug‘doy nav namunalarining o‘sov davri davomiyligini o‘rganish asosida ertapishar nav va namunalarni tanlab olish, mahalliy va xalqaro markazlardan keltirilgan qattiq bug‘doy nav namunalarining qurg‘oqchilikka va issiqlikka chidamliligini baholash; nav namunalarining biometrik, mahsuldorlik va texnologik don sifat ko‘rsatkichlarini o‘rganish asosida hosildor va makaronbop namunalarni tanlash.

O.Amanov, Sh.Dilmurodov va boshqalarning fikricha, yangi yaratiladigan navlar sifat jixatidan makaron va konditer mahsulotlari talabiga to‘la javob berishi lozim. Buning uchun qattiq bug‘doyning yangi navlarini ratiashda Qattiq bug‘doy (*Triticum Durum*) seleksiya ishlarida o‘rganilayotgan namuna va tizmalarning don sifatiga ham alohida e‘tibor berish lozimligi ta‘kidlagan. Tadqiqotlarda qattiq bug‘doy donining hosildorligiga, birinchi navbatda, ob-havo sharoitiga bog‘liq holda mahsuldor poyalarning soni, boshqning og‘irligi va boshqdag donalarning soni ta‘sir qilishi aniqlangan. Olimlarning fikriga ko‘ra hosildorligi yuqori bo‘lgan navlarning hosildorligi yillar davomida barqaror yuqori hosil berishi juda muhim ahamiyatga egadir.

Hosildorlik potensialini oshirishning yo‘li tanlashdan tashqari, abiotik va biotik omillarga chidamliligini oshirish uchun tanlash orqali hosildorlikni ko‘tarishga erishish mumkin .

Qurg‘oqchilik va issiqlik omillari hosildorlik potensialini keskin cheklashi va donning sifat ko‘rsatkichlariga ta‘sir qilishi mumkin. So‘nggi yillarda iqlimning o‘zgarishi natijasida yer yuzida havo haroratining 1-2⁰S darajaga ko‘tarilishi

oqibatida qattiq bug‘doy navlarining hosildorligi va don sifatiga salbiy ta‘sir qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulkarimov D.T. Dala ekinlari xususiy seleksiyasi. Toshkent: 2007. - B. 68-83.
2. Amanov O., Dilmurodov Sh., Meyliev A., Qayumov N. "Sug‘oriladigan maydonlar uchun qattiq bug‘doyning don sifati yuqori tizmalarini tanlash" AGRO ILM 2019 2-son 19-20 bet
3. Bolqiev Z. T., Amanov O. A. Influence of temperature on hard wheat grain quality //Life Sciences and Agriculture. – 2021. – №. 1. – S. 124-128.
4. Shukurovna, Q. U., Kuzgi yumshoq bugdoyning «qipchoqsuv» navining o‘sishi, rivojlanishi, hosildorligiga ekish va o‘git me‘yorlarining ta‘siri. Agroiinnovatsiya, 1(1), 96-102.
5. Каршиева У. Изучение мягкой пшеницы на устойчивость к биотическим стрессам в условиях Узбекистана. .(2022). 431-438.
6. Ochilov M., Shaumarov X. Development of sukut preparation technology from introduced unabi (*Ziziphus jujuba* Mill.) fruits //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 141. – C. 01015.
7. Очиллов М. А. и др. УНАБИ МЕВАЛАРИДАН ЦУКАТ ТАЙЁРЛАШДА ОПТИМАЛ ҚУРИТИШ РЕЖИМЛАРИНИ ЎРНАТИШ //Central Asian Journal of Academic Research. – 2024. – Т. 2. – №. 11-2. – С. 101-105.
8. Qing H. et al. Efficiency of growing jujube (*Ziziphus jujuba* Mill) varieties that imported from China //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 421. – C. 01007.